

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Ro'yhatga olindi: BD -5110900-2.08

2018 - yil "18" 06

OILA PSIXOLOGIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lif sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lif
yo'nalishi: 5110900 – Pedagogika va psixologiya

TOSHKENT – 2018

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil “18” 08-dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil “25” 08-dagi 244 -sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: N.G.Kamilova -

Nizomiy nomidagi TDPU Psixologiya kafedrasи dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi.

D.U. Abdullaeva -

Nizomiy nomidagi TDPU Psixologiya kafedrasи katta o‘qituvchisi

Taqribchilar:

M.Xolnazarova

– Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи mudiri, psixol.f.n.dotsent

Sh.Vadenova –

Toshkent pedagogika kolleji “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy Kengashida tavsiya qilingan (2018-yil 28 06-dagi 11 -sonli bayonnomasi).

I.O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Ushbu dastur oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi, oilada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar haqida bilishi; oilaning mustahkamligini ta‘minlovchi bilim va malakalarga ega bo‘lishi; oilaviy hayotni o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda talqin eta olishi; muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona (oila va uning mustahkamligiga ta’sir etmagan holda) chiqa olishi; oilani o‘rganuvchi psixologik tashxis metodikalari bilan ishlash va ular yordamida olinadigan natijalarni to‘g‘ri talqin eta olishi kerak.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Faning o‘qitishdan maqsad – talabalarni oilaviy hayot qonuniyatlariga oid bilimlarini kengaytirish, oila muammolari va ularni hal etish yo’llari bilan tanishtirish, ilk ma’naviy qadriyatlar shakllanadigan ijtimoiy institut hisoblanmish oilaga nisbatan to‘g‘ri ustanovkalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarni oila psixologiyasi kursining asosiy mazmunini tashkil etuvchi ilmiy tushunchalar, oilaviy o‘zaro munosabatlarga oid qonuniyatlar, mammakatimizda oilani mustahkamlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatining tub mohiyati bilan tanishtirish, talabalarni oila muammolari borasida teran mustaqil fikrplashga, bilganlarini hayotda va pedagogik faoliyatda qo‘llay bilishga o‘rgatishdir.

– Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakalariga quyidagicha talablar qo‘yiladi.

Talaba:

– oila va nikoh tushunchasi; nikohga etuklik jihatlari; oilaviy hayotga tayyorlash muammozi; zamonaviy oilaning o‘ziga xosligi; oilaviy munosabatlар psixologiyasi; yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari; er xotin munosabatlari rivojlanish dinamikasi; oilaviy nizolar va ularning turlari; oilaviy munosabatlarning buzilishi: nikoh ajrimlari; ota-onalik – bola munosabatlari psixologiyasi to‘g‘risida **bilimga**;

– oilaning ijtimoiy mohiyatini; mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlarini; oila psixologiyasining tadqiqot metodlarini; oilaning vazifalari va ularning o‘zaro bog‘liqligini; er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishga oid qonuniyatlarini; yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolarni; ota-onalik – bola munosabatlarning o‘ziiga xos xususiyatlarini; oilaviy munosabatlarni o‘rganishga oid metodikalarni; oilaviy konsultatsiyaga doir qonuniyatlarini **ko‘nikma**;

– oilaning asosiy metodlaridan foydalanimish; oilaviy nizolarni taxlil qilish; oilaga yordam ko‘rsatishga qaratilgan psixologik tavsiyalarni ishlab chiqish; oilaviy nizolarni hal qilishning asosiy variantlarini; ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakllarini; yosh oilada yuz beradigan psixologik o‘zgarishlarni tadqiq qilish yuzasidan **malakasiga ega bo‘lishi kerak**;

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

1- Modul. Oila psixologiyasi faniga kirish

1-Mavzu: Oila psixologiyasi fan sifatida

Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimida tutgan o‘rni. Oila psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Oila psixologik tadkikot birligi

sifatida. Oila psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Oila tushunchasining psixologik mazmuni. Oila psixologiyasining o'rganishdagi qiyinchiliklar. Oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari: kuzatish, konkret vaziyatlarni tahlil qilish, suhbat, eksperiment, statistik metodlar. Oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari. Oilaviy munosabatlarni o'rganishdagi qiyinchiliklar.

Shaxs rivojlanishda oilaning roli. Oila ijtimoiylashuvning muhim instituti sifatida. Oila institutining rivojlanish tarixi. Guruhiy nikohdan juftlik nikohgacha.

2-Mavzu: Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar

Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi. «Avesto»da oila haqida bayon etilgan fikrlar. Islomda oilaviy munosabatlar masalalari. Mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning oila va oilaviy munosabatlar xususidagi qarashlari. Yu.Toslaviyning “Xikmatlar xazinası”dagi nasihatlari. Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida qarashlari.

3-Mavzu: Oilaning ijtimoiy vazifalari, oilaviy rollar

Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o'zaro bog'liqligi. Oila vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari. Oila vazifalari klassifikasiyasi. Oilaning iqtisodiy vazifalari. Oilaning xo'jalik ishlarini olib borishda, byudjet yuritishda, iste'molchilik faoliyatini tashkil etishdagi ishtiroti. Oilaning tarbiyaviy vazifalari: jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish. Ota-onalarning bolaga ta'siri. Oilaning kommunikativ vazifasi: oila a'zolarining atrof - muhitni idrok qilishiga oilaning ta'siri. Oilada o'zaro munosabatlarni tashkil etish. Dam olishni tashkil etish. Oilaning rekreativ vazifasi: o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish. Oilaviy rollar tushunchasi. Oilada rollar taqsimoti va oilaning rolli tuzilishi. An'anaviy va egalitar oilaning bir-biridan farqi.

4-Mavzu: Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati. Oilaviy hayot tayyorlik jihatlari. Yoshlarda psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi. Psixologik yetuklikning shaxs hulqining turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanishi. Muloqot madaniyati oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo'naliishi sifatida. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar. Oila qurish haqidagi ustanovkalarni shakllanishi.

5-Mavzu: Oilaning hayotiy tsikli

Oilaning hayotiy sikli. Oila hayotiy siklini davrlashtirish muammosi. Turli mualliflar nuktai-nazaridan oila boskichlari taxlili. Oila hayotiy siklining asosiy boskichlari. Yosh va etuk oilada oilaviy munosabatlarning rivojlanishidagi asosiy vazifalar. Oila dinamikasi hayotiy sikli doirasida yuzaga keluvchi asosiy oilaviy hodisalarining o'ziga xosligi. Oila rivojlanishining normativ inqirozlar.

6-Mavzu: Er-xotin juftligining shakllanishi

Umr yo'ldosh tanlash nazariyalari. Oila qurishdan avvalgi davrning o'ziga xos xususiyatlari. Nikohning yuzaga kelishiga asos bo'ladijan omillar kompleksi. Tanishish shartlari va sharoitlari. Nikoh yoshi xususiyatlari. Nikoh motivlari va er-xotin munosabatlari. Oila butun bir tizim sifatida. Oiladagi emotsional munosabatlarni harakteri. Sevgi – er-xotin munosabatlarini qurishda asos sifatida.

Muhabbat borasidagi nazariyalar. Sevgining xissiyot sifatida rivojlanishi. Muhabbat turlari, bosqichlari, belgilari.

7-Mavzu: Yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari

Yosh oila psixologik izlanishlarning ob'ekti sifatida. Yosh oila: munosabatlar modeli va xususiyatlari. Yosh oila muammolari. Umr yo'ldoshini ideallashtirish. Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi. Moddiy, axloqiy-psixologik, intim-shaxslilik adaptatsiyalari. Oilaviy motivlar shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi oila integratsiyasining ijtimoiy-funksional mechanizmlari. Turmush qurishning umumiy motivatsiyasi. Oilaadagi rollar. Birinchi farzandning tug'ilishi.

2-Modul. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining xususiyatlari

8-Mavzu: Oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Oilaviy hayotning farovonligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar. Er xotin munosabatlarining rivojlanishi. Er-xotin munosabatlirini muvofiqlashtirishga oid qonuniyatlar. Oilaviy munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan inqirozlar. Nikoh modellari va er-xotin munosabatlari.

9-Mavzu: Oilaviy nizolar va ularning turlari

Nizo va uning psixologik xususiyatlari. Oilaviy nizolar va ularning turlari. Nizolar nikoh - oila munosabatlarini keskinlashtiruvchi vosita ekanligi. Konstruktiv (biriktiruvchi) va destruktiv (ajratuvchi) nizolar. Oilada muloqotning buzilishi. Nizolarni yuzaga kelish mechanizmlari. Er – xotin nizolarining asosiy sabablari. Nizolarni hal qilishning asosiy variantlari.

10-Mavzu: Oilaviy munosabatlarning buzilishi: oila inqirozi va nikoh ajrimlari

Oilaviy munosabatlarning buzilishi. Ajralish muammosi. Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari. Ajralishga sabab bo'luvchi omillar. Ajralishlarning oqibatlari. Ajrimlarning er-xotin va farzandlar taqdiriga ta'siri. Qayta turmush qurish. Yangi oila tizimini shakllanishining asosiy shakllari. Qayta turmush qurishning psixologik muammolari.

11-Mavzu: Ota-onalik – bola munosabatlari psixologiyasi

“Ota - ona - bola” munosabatlari xarakteristikasi. Ota – ona – bola munosabatlarining tarixiy davrlari.

Onalik va otalik psixologiyasi. Bola shaxsini shakllanishida ota va onaning roli. Ota-onalik ustanovkalarini va tarbiya shakllari. Ota –onalarning bola bilan o'zaro munosabat va muloqot stillari. Proteksiya yoki farzandlarini tarbiyalash muammolari. Ota-onalik xulq-atvoriga ko'ra oilada bola tarbiyasining uslublari. Giperproteksiya. G'amxo'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya. O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat. Emotsional raddiya. Qattiqxo'llik. Gipoproteksiya. Ziddiyatli tarbiya. Bola tomonidan ota-onalarning va ota-onalikning idrok etilishi. Ota - ona va bola munosabatlari sohasida olib boriladigan kogreksion ishlarning maqsad va vazifalari.

12-Mavzu: Oila diagnostikasi va konsultatsiyasi xususiyatlari

Oila diagnostikasi xususiyatlari. Oila muammolarini ijtimoiy psixologik diagnostika qilish metodlari. Oilaviy munosabatlar dinamikasi va sifatini aniqlashda proaktiv metodikalardan foydalanish. (Oila rasmi). Oilaviy

sotsiogramma asosida sub'ektning oiladagi o'rni, shaxslararo munosabatlari va kommunikatsiya xarakterini o'rganish

Oila konsultatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy tamoyillar va boskichlari. Oilaviy konsultatsiyada foydalaniladigan metod va usullar. Oila konsultatsiyasiga zamonaviy yondashuv. Oila psixoterapiyasi asoslari. Tizimli oila psixoterapiyasinini aniklash. Tizimli oila psixoterapiyasi qo'llash uchun ko'rsatmalar va cheklanishlar. Tizimli oila psixoterapiyasi texnikasi. Individual psixologik konsultatsiya. Guruhli psixologik konsultatsiya. Oila muammolari bo'yicha konsultatsiya. Nikoh qurish bo'yicha konsultatsiya. Oilada zo'ravonlik bo'yicha konsultatsiya. Ajralish muammosi bo'yicha konsultatsiya. Oila tadkikotlarida art-metodlar.

13-Mavzu: O'zbekistonda oila siyosatining shakllanishi

Davlatning oilani mustahkamlash siyosati va uning asosiy tamoyillari. Oilani kafolatlovchi manbalar. Konstitutsiyaning oilaviy munosabatlar sohasidagi tamoyillari. Oila kodeksi. Oila huquqining asosiy manbai butun keng qamrovli O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi - oila qonunchiligining "o'zagi". O'zbekistonda oilalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

IV. Seminar va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabarlarda oila psixologiyasiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

1. Oila va nikoh munosabatlari psixologiya fanining predmeti sifatida
2. Mutafakkirlarining oila xususida qarashlar.
3. Oila va oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlar.
4. Oila va nikoh institutining rivojlanishi tarixi.
5. Jinsiy farqlar psixologiyasi.
6. Oila va nikoh
7. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash
8. Er-xotin juftligining shakllanishi.
9. Oiladagi ijtimoiy psixologik muhit
10. Yosh oillarning ijtimoiy va psixologik muammolari.
11. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.
12. Oilaviy nizolar va ularning turlari
13. Oilaviy munosabatlarning buzilishi: oila inqirozi va nikoh ajrimlari
14. Ota-on-a - bola munosabatlari psixologiyasi
15. Ota-onalik ustanonvkalari va tarbiya shakllari
16. Oilaviy konsultatsiya
17. O'zbekistonda oila siyosatining shakllanishi

Amaliy mashg'ulotlarida talabarlarda oila psixologiyasiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

1. Ayollar va erkaklarni kommunikativ sohadagi gender farqlari.
2. Muloqot madaniyati oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo'nalishi sifatida.
3. Nikohning yuzaga kelishiga asos bo'ladigan ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, ahloqiy va psixologik omillar kompleksi.
4. Turmushdan qoniqish hosil qilishning asosiy omil va sabablari.
5. Yosh oila muammolari.

6. Oilaviy hayotning farovonligiga bevosita ta'sir etuvchi omillar.
7. Oilaviy nizolarni taxlili.
8. Ajralishga sabab bo'luvchi omillar.
9. "Ota-on va bola" munosabatlarini psixik xususiyatlarini taxlili.
10. Oilaviy konsultatsiyada foydalaniladigan metod va usullar.
11. Ajralish muammosi bo'yicha konsultatsiya.

V.Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ta'limi tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyiha fan boblari va mavzularini o'rghanish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adapbiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash; masofaviy ta'lif.

Talabaga mustaqil ta'limga mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytildi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'rildi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limi mavzulari:

1. Oilaviy sotsializatsiya: bosqichlari, institutlari, ta'sir imkoniyatlari.
2. Ota-onalik ustanovkalari va tarbiya shakkllari.
3. Milliy g'oya va oilada shaxs tarbiyasi.
4. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil etish.
5. Oilaviy munosabatlarning ildizlari va attraksiya
6. O'zaro bog'liqlik munosabatlarning dinamikasi.
7. Nikoh modeli va ota-onha oilasi
8. Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar
9. O'zbekistonda yosh oilalarning qo'llab-quvvatlanishi
10. Yosh oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi
11. Oilaviy munosabatlarning buzilishi: ajrim motivlari
12. Inqirozli oilaga psixologik ko'mak berish yo'llari
13. Ota-onha – bola munosabatlari tizimi
14. Oilaning reproduktiv vazifikasi va er-xotin reproduktiv xulqi
15. Perinatal psixologiya
16. Otalik va onalik psixologiyasining o'ziga xos jihatlari
17. Ota-onalik xulqi va bola tarbiyasi
18. Bola tomonidan ota-onalikning idrok etilishi
19. Aka-ukalik va opa-singillik munosabatlari psixologiyasi
20. Sibling maqomining oilaviy munosabatlarga o'zaro ta'siri
21. Oilaparvarlik fazilatlari
22. O'zbekistonda maqsadga yo'naltirilgan oila siyosati
23. Oilani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning mohiyati
24. XXI asr oilasi konsepsiyasining asosiy mazmuni.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b.
2. Shoumarov G.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi.T.: Sharq, 2009. -272 b.
3. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - Т.Шарқ 2007.
4. Доброславович В. Любовь или влюблённость? Москва. Академия 1999 г.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5.Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил қатыйи тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятини кундалик қоидаси бўйиши керак Ўзбекистон Республикаси Вазирлар мажхамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи //Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ №11.

6.Мирзиёв Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2016.

7.Мирзиёв Ш.М. Буюк келаҗагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга кўрамиз. “Ўзбекистон” 2017

8.Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракат стратегияси. 7 январ 2017 йил.

9.Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi O‘quv qo‘llanma. Т.,Шарқ 2006

10.Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004. - 244 с.

12.Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. Учебное пособие. – М.: Гайдарики, 2005. – 320 с.

13.Shoumarov G.B. Muhabbat va oila. – Т.: Ibn Sino, 1994. - 120 b.

14.Сатир В.М. Как строит себя и свою семью. М.: Педагогика - Пресс. 1992. -191 с.

15.Психология семейных отношений: конспект лекций / сост. С.А.Векилова. - М.: АСТ; - СПБ: Сова, 2005. - 127 с.

16.Социология семьи: Учебник, под. ред. проф. А.И.Антонова- 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. - 640 С. (Классический университетский учебник).

17.Faxr-ul Banot Sibhatulloh qizi. Oila saboqlari. - Т.: Yozuvchi, 1992. – 96 b.

18.XXI asr oilasi kontsepsiysi. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi. - Т.: NISIM, 2002. - 28 b.

19.Bo‘riev O. O‘zbek oilasi tarixidan. - Т.: O‘qituvchi, 1995. - 128 b.

Internet saytlari

20. www. tdpu. uz

21. www. pedagog. uz

22. www. ziyonet. uz

23. www. edu. uz